

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar

- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar


I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yilning yanvar oyidagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 882,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirilganda **13,5** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2025- yilda xizmatlar hajmi **3 206,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirilganda **11,7** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

mlrd so'mda ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026- yilning yanvar oyida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **27,7** %, ya'ni **1 073,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirilganda ushbu hududda **13,7** %ga oshgan. Andijon shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Asaka (**176,1** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,5** %ini egalladi), Andijon (**154,1** mlrd so'm, **4,0** %), **Shahrixon** (**147**, mlrd so'm, **3,8** %) va Baliqchi tumanida (**139,4** mlrd so'm, **3,6** %) kuzatildi. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **42,7** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,1** %ini tashkil etdi.

¹ 2022-2025- yillar va 2026- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	3 882,4	100,0	113,5
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	1 073,5	27,7	113,7
Xonobod sh.	61,7	1,6	112,6
Oltinko'l	112,2	2,9	111,5
Andijon	154,1	4,0	111,2
Baliqchi	139,4	3,6	112,5
Bo'ston	49,8	1,3	112,2
Buloqboshi	86,1	2,2	112,0
Jalaquduq	123,4	3,2	113,5
Izboskan	136,0	3,5	113,4
Ulug'nor	42,7	1,1	111,3
Qo'rg'ontepa	136,4	3,5	112,9
Asaka	176,1	4,5	111,0
Marhamat	109,8	2,8	112,3
Shahrixon	147,3	3,8	112,7
Paxtaobod	107,3	2,8	113,0
Xo'jaobod	118,2	3,0	111,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahridan tashqari viloyatning boshqa hududlarida, xususan, Jalaquduq (**113,5** %), Izboskan (**113,4** %), Paxtaobod (**113,0** %), Qo'rg'ontepa (**112,9** %), Shahrixon (**112,7** %) va Xonobod sh (**112,6** %) tumanlarida kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Asaka tumanida (**111,0** %) qayd etildi.

2025- yilning yanvar oyida Andijon viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 112,0** ming so'mni tashkil etdi. 2025- yildagi (**935,5** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **176,5** ming so'mga, ya'ni **11,5** %ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **2 155,7** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **328,6** ming so'mga (**11,1** %) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Xonobod sh (**1 318,5** ming so'm), Xo'jaobod (**957,8** ming so'm) va Ulug'nor (**661,7** ming so'm) tumanlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**440,5** ming so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar

	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	1 112,0	111,5
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	2 155,7	111,1
Xonobod sh.	1 318,5	111,1
Oltinko'l	574,2	110,2
Andijon	521,4	108,8
Baliqchi	627,8	110,4
Bo'ston	618,6	109,8
Buloqboshi	547,6	110,0
Jalaquduq	606,2	111,8
Izboskan	518,0	111,3
Ulug'nor	661,7	110,6
Qo'rg'ontepa	577,3	111,1
Asaka	482,4	109,0
Marhamat	573,1	110,2
Shahrixon	440,5	110,5
Paxtaobod	500,6	111,0
Xo'jaobod	957,8	109,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Jalaquduq tumanida (**111,8 %**), Izboskan (**111,3 %**), Andijon, Xonobod shaharlari va Qo'rg'ontepa tumanida (**111,1 %**), Paxtaobod (**111,0 %**), Ulug'nor (**110,6 %**), Shahrixon (**110,5 %**), Baliqchi (**110,4 %**), Oltinko'l (**110,2 %**), Buloqboshi (**110,0 %**) tumanlarida, shuningdek, Bo'ston tumanida (**109,8 %**) qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 743,4** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **70,7 %**ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **111,8 %**ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Oltinko'l (**69,2 %**), Andijon (**68,6 %**), Izboskan (**68,3 %**), Marxamat (**66,5 %**), Andijon sh (**66,1 %**), Jalaquduq (**65,3 %**), Xo'jaobod (**65,2 %**), Baliqchi (**63,7 %**), Xonobod (**62,9 %**) tumanlarida hamda Ulug'nor tumanida (**59,4 %**) kuzatilmogda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Shahrixon va Paxtaobod tumanlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Shahrixon tumanida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **77,5** mlrd so'mni, Paxtaobod tumanida esa **53,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	2 743,4	70,7	111,8
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	709,4	66,1	108,8
Xonobod sh.	38,8	62,9	112,5
Oltinko'l	77,6	69,2	110,6
Andijon	105,8	68,6	111,1
Baliqchi	88,8	63,7	111,9
Bo'ston	28,6	57,5	110,6
Buloqboshi	45,3	52,6	109,8
Jalaquduq	80,6	65,3	116,4
Izboskan	92,9	68,3	116,3
Ulug'nor	25,4	59,4	110,1
Qo'rg'ontepa	68,8	50,4	110,4
Asaka	105,0	59,6	109,3
Marhamat	73,0	66,5	111,5
Shahrixon	77,5	52,6	111,2
Paxtaobod	53,7	50,1	109,8
Xo'jaobod	77,1	65,2	111,2

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**20,6** %ga; umumiy o'sishga **3,5** foiz band hissa qo'shdi), savdo xizmatlari (**13,3** %ga; **2,5** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**14,5** %ga; **3,2** f.b.), transport xizmatlari (**9,8** %ga; **1,8** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,6** %ga; **0,2** f.b.), boshqa xizmatlar (**10,3** %ga; **0,5** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**26,9** %ga; **0,9** f.b.), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**12,5** %ga; **0,2** f.b.) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning (**11,0** %ga; **0,2** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**6,5** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,6** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**10,9** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**5,1** %ga) o'sib, **0,5** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2026- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **22,2** %, transport xizmatlari **18,8** %, savdo xizmatlari **18,8** %, moliyaviy xizmatlar **17,0** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,2** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,3** % ulushni egalladi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil yanvar	2026- yil yanvar	
Xizmatlar - jami	3206,8	3 882,4	113,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	136,3	163,8	105,6
moliyaviy xizmatlar	546,8	658,9	120,6
transport xizmatlari	590,8	731,4	109,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	542,6	656,7	105,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	694,8	860,8	114,5
savdo xizmatlari	615,7	731,1	113,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	63,6	72,6	111,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	99,5	127,3	126,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	60,3	70,2	112,5
ijara xizmatlari	52,9	60,3	106,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	70,6	81,9	110,9
shaxsiy xizmatlar	130,5	151,6	105,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	18,0	20,4	105,6
boshqa xizmatlar	126,8	152,2	110,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **166,0** mlrd so'mga oshib, **860,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **98,7** % darajasida qayd etildi.

2026- yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **731,4** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari **89,8** %, yoki **656,7** mlrd so'm hajm bilan ustunlik qiladi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi 2026- yil yanvar



2025- yilga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **115,4** mlrd so'mga oshib, **731,1** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **69,5** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **13,0** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **17,5** %ni tashkil etdi.


2025- yilga nisbatan 2026- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **112,0** mlrd so'mga oshib, **658,9** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **20,6** %ga o'sdi.

2026- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **83,4** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **1,9** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **14,7** %ni tashkil etdi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **163,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (**80,4** %) egalladi.

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborot xizmatlari umumiy hajmining kompyuter dasturlashtirish xizmatlari ulushi **11,9** %, axborot xizmatlari **3,5** %, noshirlik xizmatlari **3,4** % va boshqa xizmatlar **0,8** % ni tashkil etgani ta'kidlandi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi 2026- yil yanvar, mlrd so'mda



Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klasterni paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa outsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2026- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **127,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **53,4** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**72,6** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,7** % darajasida qayd etildi.

2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **70,2** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **112,5** % ni tashkil etgan.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu - xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 170100, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36-"A" uy,
Pochta: info@andstat.uz
Tel.: 74-224-80-00

